

Yaman Saudiya Arabistoni va Eron o`rtasidagi geosiyosiy frontmi?

Bir necha yillardan beri Yaman fuqarolar urushi girdobida qolgan. Mintaqadagi davlatlar – Saudiya Arabistoni va Eron o`zlarining g`oyaviy va strategik maqsadlarini amalga oshirish hamda Yamanni o`z ta'sir doirasida saqlab qolish uchun turli tomonlarni qo`llab-quvvatlamodalar. Saudiya Arabistoni Yamandagi fuqarolar urushida 2015-yil 26-martdan boshlab Yamanga arab davlatlari xalqaro koalitsiyasini kiritish orqali mamlakatdan qochib ketgan rasmiy hukumatni qo`llab-quvvatlasa, Eron 2014-yilda hokimiyatni egallagan husiylarga yordam bermoqda. Husiy nomi uning g`oyaviy asoschisi Husayn Badriddin al-Husiy nomidan olingan bo`lib, shialikning zaydiy mazhabiga e'tiqod qilishadi. 1992-yilda al-Husiy va Muhammad Azzan “Yosh mo`minlar forumi” deb atalgan diniy uyushma tuzadi. Tez orada bu uyushma ikki oqimga ajralib ketib, birinchisi tinch namoyishlar tarafdori bo`lsa, ikkinchisi qurolli kurash tarafdorlariga aylanishadi. Ikkinchi guruhdan husiylar kelib chiqqan. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin Ali Abdulloh Saloh boshchiligidagi rasmiy hukumat terrorizmga qarshi kurashda AQShni qo`llay boshladi. Husayn a-Husiy bo`lsa Sada' viloyatidagi konferensiyada musulmon va arab dunyosida Amerika gegemonligiga chek qo'yishga chaqirdi. Bu bayonotdan keyin hukumat bir nechta yuz kishini qo`lga oladi. Natijada Yamanda husiylar qo`zg`oloni boshlanib, bu qo`zg`olon 2004-yildan Sada' urushiga aylanib ketadi. Bu urush 10 yil davom etib, urushda Saudiya Arabistoni rasmiy hukumatni qo`llab-quvvatlaydi. 2014-yilda sobiq prezident Ali Abdulloh Saloh ham husiylar tomonga o`tib, amaldagi hukumatga qarshi bosh ko`taradi. 2014-yilda husiylar Yaman poytaxti Sanani egallashi bilan urush nihoyasiga yetib, endi mamlakatda fuqarolar urushi boshlanadi va hozirgacha davom etmoqda. 2015-yilda Adanga qochgan Abd Rabbu Mansur al-Hodiy boshchiligidagi rasmiy hukumat husiylarning janubga yurishidan keyin Saudiya Arabistoniga qochib ketadi. Saudiya Arabistonining Yaman ichki ishlariga aralashib, shu yili intervensiya uyushtirishi vaziyatni izdan chiqardi.

Yaman mojarosida tashqi kuchlar o`rni

Yaman inqirozining kelib chiqish sabablari diniy, siyosiy va geosiyosiy aspektlarga asoslangan. Diniy sabablarni ko`rib chiqadigan bo`lsak, shimol aholisining 65 %, janubning deyarli 100 % sunniylikning shofiylik mazhabiga e'tiqod qiladi.¹ Shimol aholisining 35 % esa shialikning zaydiylik oqimiga e'tiqod qiladi. Shialar asosan Sada' viloyatida yashaydi. 70-yillardan Saudiya Arabistoni vahhobiylikni yoyishga harakat qila boshlaydi. Yaman aholisining sunniy va shia qism uchun ham vahhobiylik yot g`oya. Vahhobiylikning majburiy tarzda o`tkazishga urinish zaydiylarning noroziligiga sabab bo`ladi. Vahhobiylar va zaydiylar o`rtasidagi ziddiyat bora-bora Saudiya va Eron o`rtasidagi oshkora kurashga aylana bordi.

Siyosiy sababi 1990-yilda ikkala Yamanning birlashuvidan keyin Yaman sotsialistik partiyasi va Umummilliy Kongress o`rtasida hokimiyat uchun kurash kuchaydi. Birlashuvdan so`ng darrov shayx az-Zindoniyy oppozitsion reformistik partiya – “al-

¹ Кузьмин В., Соколов Н. Причины Йеменского конфликта и его развитие в 2011-2015 гг. Мусульманский мир, 2017. с. 46.

Islah”ni tuzib, Saloh va UMK bilan koalitsiya tuzadi. Buning natijasida shimolliklar mavqei mustahkamlanib, janubliklar hokimiyatdan chetlatila boshlanadi. 2000-yillarda janubliklarni diskriminatsiya qilish kuchayishi fonida janubda separatistik guruhlar paydo bo`la boshlaydi.

Geosiyosiy jihatdan Yaman Qizil dengizdan Hind okeaniga chiquvchi muhim geografik joyda joylashgan. Bu yerdagi Bab el-Mandeb bo`g`ozi orqali neft tranzit yo`li o`tgan. Qolaversa, Yaman Saudiya Arabistoni bilan chegaradosh va chegarada, asosan, shialar yashaydi. Eron bu omildan foydalanib, Saudiya bilan chegarada ko`pgina nizolar keltirib chiqarish orqali uni zaiflashtirishi mumkin. Shu sabablarni hisobga olganda Yaman inqirozi kelib chiqishiga barcha shart-sharoit yetilgan. Endi Saudiy Arabistoni va Eronning Yamandagi manfaatlarini ko`rib chiqaylik. Saudiya Arabistoni va Eron Yaman inqirozi boshlangungacha bu yerda o`z manfaatlariga ega edi. Biroq arab koalitsiyasining prezident Hodiyni qo`llab, qo`shin kiritishi tomonlarning ishtirokini yanada faollashtirib yubordi. Ikkala tomon ham Yamanni ko`pgina jihatlar – siyosiy, iqtisodiy va diniy jihatdan strategik muhim hudud deb hisoblaydi.

Saudiya Arabistoni Yaman bilan tarixan chegara muammosiga ega bo`lgan. Yamanning uchta viloyati – Najron, Asir va Jizar 1934-yilgi Toif shartnomasi bo`yicha Saudiya Arabistoniga 20 yil muddatga foydalanishga topshirilgandi. Biroq muddat 2000-yilgacha uzaytirilib, shu yili Yaman prezidenti Jiddada yangi shartnoma imzoladi va unda Toif shartnomasi tan olinib, viloyatlar ustidan nazorat Saudiya Arabistonining to`liq nazoratiga o`tkazildi. Bu harakat yamanliklarning noroziligiga sabab bo`ldi. Saudiya Arabistoni bu bilan cheklanib qolmasdan ekspansiyani davom ettirdi. Sada`, Damar, Sana, Xodja viloyatlaridagi qabila boshliqlari Saudiya fuqaroligini qo`lga kiritdi. Bundan tashqari, 70-yillardan boshlangan salafiylar tashviqotlari natijasida ham Saudiya Arabistoni Yamanda diniy jihatdan o`z tarafdorlarini topdi.² Biroq “arab bahori” natijasida Yamanda husiylarning ta`sir doirasi kengayib ketdi. Bundan tashqari Yamanda “Al-Qoida” terroristik guruhi ham paydo bo`lib, ular Saudiya hududiga bostirib kirishi tahdidi paydo bo`ldi. Saudiya Arabistoni husiylarning kuchayishiga ham, Yamanning parchalanib ketishiga ham, o`ziga va g`arbdagi asosiy ittifoqchisi – AQShga sodiq Hodiyning hukumatdan ketishiga ham yo`l qo`ya olmasdi. 2015-yil 26-martda Saudiya Arabistoni arab davlatlari koalitsiyasini Yaman hududiga kiritdi. Saudiya Arabistonining Yamanda bir qancha maqsad va manfaatlarga ega. Ular orqali nafaqat Yamanni o`z ta`sir doirasida saqlab qola oladi, balki shialarning yetakchisi va mintaqa liderligi uchun raqobatchisi – Eronga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bora oladi.

Birinchisi Yaman inqirozining Saudiya hududiga ehtimoliy tarqalishini oldini olish va o`z xavfsizligini ta`minlash. Qo`zg`olonchilar konflikt ta`siri ostida Saudiya Arabistonida 2000-yilgi shartnoma bo`yicha unga o`tib ketgan 3 ta viloyatni qaytarishni so`rashi mumkin. Konflikt, shuningdek, Saudiyaning neftga boy va asosan, shialar yashaydigan ash-Sharqiya viloyatida shialar qo`zg`oloni boshlanishiga turtki ham

² Кузьмин В., Соколов Н. Политические цели и позиции Саудовской Аравии и Ирана в Йеменском конфликте. Международные отношения, 2017. с. 140.

bo`lishi mumkin. Shuningdek, musulmon muqaddas qadamjolari joylashgan Hijoz mintaqasida ham “Al-Qoida” terrorchilari tufayli nizo kelib chiqish xavfi mavjud.

Ikkinchisi Eronning Yaman shialariga ta’sirini zaiflashtirish va uning konfliktga aralashish ehtimolligini bartaraf etish, Eronning Yaqin Sharq lideri bo`lishiga yo`l qo`ymaslik.

Uchinchisi Bab el-Mandeb bo`g`ozi orqali o`tdigan neft tranzit yo`li ustidan nazoratni saqlab qolish. Bu tranzit orqali dunyo neftining 15 % o`tadi.³ Asosiy neft trafigi bo`g`oz orqali Saudiya Arabistoni, Quvayt va Qatardan Yevropaga amalga oshiriladi. Agarda hokimiyatga husiylar kelsa va bo`g`oz yo`lini yopib qo`yishsa, bu davlatlarning neft eksport qilish va undan daromad olish imkoniyati keskin kamayadi. Aynan husiylar hokimiyatni egallagach, qirollikning Yamanga yordam qo`lini cho`zishi tasodif emas. Yaman nizosi Saudiya Arabistoni uchun birinchi navbatda o`z pozitsiyasini kuchaytirish va bu yerni o`z manfaatlari hududi sifatida saqlab qolish vositasidir.

Eronning Yaman bilan munosabatlari chuqur tarixiy ildizga ega. XX asr boshlarida Yamanda shianing zaydiylik oqimi paydo bo`ldi. Eron bo`lg`usi shia olamining lideri sifatida hamisha Yaman shialarini qo`llab kelgan. Yamanda 35 % aholi shialikka mansubligini hisobga olsak, ta’sir ko`lami katta bo`lishi aniq.⁴ Biroq bevosita davlat ishlariga aralashmagan. Husiylar hokimiyat tepasiga kelgach, Yaman bilan mustahkam aloqalar o`rnatildi. Husiylarga ochiqchasiga yordam ko`rsata boshlash orqali Eron Saudiya Arabistoniga Yaman uning strategik manfaatlari zonasi va G`arb hamda Isroilga qarshi kurashuvchi shialar zonasining bir qismi ekanligi haqida ishora berdi. Eron ham o`z navbatida Yamanda bir qancha strategik manfaatlarga ega.

Birinchisi, O`rtayer dengizidan Adan ko`rfazigacha keng ta’sir zonasi yaratish. Yaman ustidan nazorat o`rnatish orqali Eron “shia yarimoyini” yopib, mintaqa yetakchisiga aylanishi mumkin. 2014-yil sentabrda husiylar hokimiyat tepasiga kelgach, Eron parlamenti a’zosi Ali Rizo Zakaniy shunday degandi: “Bugun allaqachon 3 ta arab poytaxti (Bog`dod, Beyrut va Damashq) Eron oldida tiz cho`kdi va islom inqilobi tomon harakatlanmoqdalar. Sana – bu tez orada ular qatoriga qo`shiladigan 4-arab poytaxtidir”.⁵

Ikkinchisi, Qizil dengiziga chiqish va Bab el-Mandab bo`g`ozi ustidan nazorat o`rnatish. Bu allaqachon Ormuz bo`g`ozi ustidan nazorat o`rnatgan Eronga Fors ko`rfazidagi davlatlarning neft tranzitiga ta’sir ko`rsatish imkonini beradi.

Uchinchidan, Eron Saudiya Arabistoni bilan chegarada Yamanning shia viloyatlaridan alohida bufer zona yaratishga harakat qilyapti. Shia tahdidi ehtimolligi orqali u Saudiyaga bevosita bosim o`tkazish imkoniyatiga ega bo`ladi. Demak, Eron

³ Кузьмин В., Соколов Н. Политические цели и позиции Саудовской Аравии и Ирана в Йеменском конфликте. Международные отношения, 2017. с. 141.

⁴ Еникеев Р.Ш., Влияние региональных сил на военно-политическую ситуацию в Йемене. Международная политика, 2017. с. 87.

⁵ <http://bit.ly/22pg7Gp>

Yaman konfliktidan Saudiya Arabistoni bilan chegarada o`zining geosiyosiy va mintaqaviy ta'sirini mustahkamlash maqsadida foydalanayapti.⁶

Husiylardan tashqari Eron Yaman janubidagi separatistlarni ham qo`llab-quvvatlaydi. 2015-yilgacha Eron Yaman Xalq Demokratik Respublikasining sobiq bosh kotibi, xorijiy oppozitsiya yetakchilaridan biri Ali Salem al-Bayduni moliyaviy jihatdan qo`llab kelgan. Eron al-Bayduning nazorati ostidagi "Xaraka" radikal qanotini qurol bilan ta'minlaydi, bir qancha elektron va bosma nashrlar, oppozitsion telekanallar, misol uchun Beyrutdan uzatiladigan va janubdagi separatizmni targ`ib qiluvchi "Aden layf" kanaliga homiylik qiladi. Saudiya Arabistoni va G`arb davlatlari uni shuningdek, "Al-Qoida" bilan aloqa qilishini ham isbotlashga harakat qilishadi. Bundan ko`rinib turibdiki, har ikkala tomon o`z manfaati yo`lida Yamandagi inqirozni o`z foydasiga burib yuborishga harakat qilishyapti.

2015-yilda BMT shofeligida nizoni tinch yo`l bilan hal qilishga urinishlar bo`lgan. 15-19-iyundagi muzokaralar natijasiz tugagach, 15-20-dekabrda ikkinchi bosqichda tomonlar asirlarni almashish va Toizga gumanitar yordam yetkazib berishga kelishib olishdi. 2016-yilda tomonlar o`q uzushni to`xtatishga kelishib olishdi. 2017-yilda Saloh va husiyalar o`rtasida bo`linish yuz berib, Saudiya Salohni qo`llab-quvvatlaydi. 4-noyabrda husiy jangarilarining hujumi natijasida Saloh o`ldiriladi. 2018-yil 28-yanvarda esa janublik separatistlar Hodiylar hukumatiga qarshi chiqib ajralib chiqish harakatini boshlashadi. 2018-yil 6-13-dekabrda Shvetsiyada Xodeyda portidagi jangda asir tushganlarni ayirboshlash, Toiz blokadasi, gumanitar yordam berish va Sana aeroporti atrofidagi masalalarni muhokama qilish uchun tomonlar muzokara o`tkazishdi. 18-dekabrda Xodeydada o`t ochish to`xtatildi.

Biroq 2019-yil 5-yanvarda BMTning Yaman masalasi bo`yicha maxsus elchisi Martin Griffithsning viziti paytida Xodeyda yana janglar boshlandi. Husiyalar va rasmiy hukumat bir-birini ayblab chiqdi.⁷

Yaman inqirozi hali ham o`z yechimini topmadi va bu mamlakat bir qancha qismlarga bo`linib ketgan. Shimoli-g`arbiy hududlari Oliy Siyosiy Kengash (husiyalar), janubiy qismi Janubiy o`tish Kengashi (separatistlar), markaziy qismi Al-Qoida va Ansor ash-Sharia terroristik guruhlari, sharqiy, shimoliy va qisman janubiy qismida Hodiylar tarafdorlari boshqarishmoqda. 2015-yil 26-martdan 2016-yil 18-martgacha 3,2 ming odam halok bo`ldi, 5,8 ming odam jarohatlandi. 21 mln odam (80 %) gumanitar yordamga muhtoj, 2,5 mln yamanlik o`z vatanini tark etishga majbur bo`lgan.⁸

⁶ Кузьмин В., Соколов Н. Политические цели и позиции Саудовской Аравии и Ирана в Йеменском конфликте. Международные отношения, 2017. сс. 142-143.

⁷[https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%93%D1%80%D0%B0%D0%B6%D0%B4%D0%B0%D0%BD%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F_%D0%B2%D0%BE%D0%B9%D0%BD%D0%B0_%D0%B2_%D0%99%D0%B5%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B5_\(%D1%81_2014\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%93%D1%80%D0%B0%D0%B6%D0%B4%D0%B0%D0%BD%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F_%D0%B2%D0%BE%D0%B9%D0%BD%D0%B0_%D0%B2_%D0%99%D0%B5%D0%BC%D0%B5%D0%BD%D0%B5_(%D1%81_2014))

⁸ <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/2598135>

Xulosa

Yuqoridagilardan xulosa qilsak, Yaman inqirozi ikki davlat o`rtasidagi diniy kurashni emas, balki geosiyosiy qarama-qarshilikni anglatadi. (Zaydiylar shia bo`lgani bilan 5 ta imomnigina tan olishadi, Yamandagi sunniylar esa Saudiya singari salafiy (vahhobiy) oqimiga e`tiqod qilishmaydi). Din ikkala davlat uchun ham shunchaki Yamanda o`rnashib olish uchun niqob, xolos. Asl maqsad Saudiya Eronning o`z ostonasida o`rnashib olib, mamlakat ichkarisidagi shialarni o`ziga qarshi gijgijlashiga yo`l qo`ymaslik va neft tranziti ustidan nazorat saqlab qolish. Eronning maqsadi esa Yamanni o`z ta`sir doirasiga kiritish orqali Saudiyaning yonginasidan unga bosim o`tkazish va bo`g`ozdagi neft tranzitini o`z nazoratiga olish orqali neft eksport qiluvchi davlatlarni nazoratda ushlab turish. Bir so`z bilan aytganda, Yaman ikkala davlat o`rtasidagi geosiyosiy front.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

Maqolalar

Еникеев, Рафаэль Шаунятович. «Влияние региональных сил на военно-политическую ситуацию в Йемене.» *Международная политика*, 2017: 77-93.

Кузьмин, Вадим, и Николай Соколов. «Политические цели и позиции Саудовской Аравии и Ирана в Йеменском конфликте.» *Международные отношения*, 2017: 139-143.

Кузьмин, Вадим, и Николай Соколов. «Причины Йеменского конфликта и его развитие в 2011-2015 гг.» *Мусульманский мир*, 2017: 46-56.

Internet materiallari

«Гражданская война в Йемене (с 2014).» *www.викпедия.ру*. 21 03 2020 г..

Закани, Али-Резо. «Иранский чиновник: четыре арабские столицы пали перед Тегераном.» *www.alviyam.com*. 22 09 2014 г. <http://bit.ly/22pg7Gp>.

«Основные этапы конфликта в Йемене.» *www.TASS.ru*. 04 12 2017 г. <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/2598135>.